

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
U.X.Kolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evaton	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
SIYOSAT	
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiев	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
Бурхониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни	297



УО'К: 1. 128.

**O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKlardan HIMoya
QILISHNING FALSAFIY-DETERMINISTIK TAHLILI**

**ФИЛОСОФСКО-ДЕТЕРМИНИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК
ОТ НАСИЛИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**PHILOSOPHICAL-DETERMINISTIC ANALYSIS OF PROTECTION OF WOMEN AND
GIRLS FROM VIOLENCE IN UZBEKISTAN**

Rahmonova Feruza Bahromjon qizi 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan asrash samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar jarayonida inson kapitalini faollashtirish asosida ayollar muammolarini hal etish, og'ir vaziyatdan chiqarish, jamiyatdagi faolligini yana-da oshirish, ayollarni ish bilan ta'minlash, ularning o'z mehnati bilan daromad topish imkoniyatiga ega bo'lishi, yoshlar tarbiyasi, ularni turli xil buzg'unchi oqimlar ta'siridan himoya qilishdek murakkab va mas'uliyatlari vazifalari, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishda inson kapitalini rivojlantirish, xotin-qizlarning faolligini oshirish, huquq va erkinliklарини ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, bu boradagi ijtimoiy islohotlarning yo'naliishlari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье в процессе реформ, направленных на повышение эффективности защиты женщин от угнетения и насилия, основанных на активации человеческого капитала, решении проблем женщин, выходе их из трудных ситуаций, повышении их активности в обществе, обеспечении женщин с работой, предоставление им возможности получать доход собственным трудом, образование молодежи, сложные и ответственные задачи по защите их от влияния различных деструктивных течений, развитие человеческого капитала в защите женщин от угнетения и насилия, социально-философская значимость повышения активности женщин, обеспечения их прав и свобод, направления и возможности социальных реформ в этой связи, проведенный анализ

Abstract

In this article, in the process of reforms aimed at increasing the efficiency of protecting women from oppression and violence, based on the activation of human capital, solving women's problems, getting them out of difficult situations, increasing their activity in society, providing women with work, giving them the opportunity to earn income with their own work, young people education, the complex and responsible tasks of protecting them from the influence of various destructive currents, the development of human capital in the protection of women from oppression and violence, the socio-philosophical importance of increasing the activity of women, ensuring their rights and freedoms, the directions and possibilities of social reforms in this regard, analysis done

Kalit so'zlar: falsafiy-deterministik tahlil, faoliik, motivatsiya, ijtimoiylashuv, gender tenglik, tazyiq, zo'ravonlik, ijtimoiy dunyoqarash, ijtimoiy mechanizm, huquqiy madaniyat, ijtimoiy-siyosiy faoliik, ijtimoiy himoya, oilaviy qadriyatlar.

Ключевые слова: философско-демернистический анализ, активизм, мотивация, социализация, гендерное равенство, угнетение, насилие, социальное мировоззрение, социальный механизм, правовая культура, общественно-политический активизм, социальная защита, семейные ценности.

Key words: philosophical-deterministic analysis, activism, motivation, socialization, gender equality, oppression, violence, social outlook, social mechanism, legal culture, socio-political activism, social protection, family values.

KIRISH

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish asosida tazyiq va zo'ravonliklarni oldini olishning falsafiy tahlilini olib borishdan oldin faoliik, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini ta'riflanishi, mazmun-mohiyatini yoritish maqsadga muvofiq.

"Faoliik" — insonni tashqi muhitga intensiv ta'siri va maqsadga erishishdagi to'siq(qarama-qarshilik)larni yengib o'tishidir. Bu organizm va tashqi muhit, subyekt va tashqi-muhit, shaxslararo va ijtimoiy muhitdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Psixologiyada "faoliik" (ingl.

activity, nems. tattigkeit) faoliyat, tashqi muhit bilan hayotiy munosabatni qo'llab-quvvatlash yoki uni o'zgartirishning manbasi" [1] hisoblanadi

Xotin-qizlarning ijtimoiy faollashuvi deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan bosimsiz ko'maklashishga intilishlari tushuniladi.

"Ijtimoilashuv deganda – jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan psixologik mexanizm, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarini individ tomonidan o'zlashtirish jarayoni tushuniladi" [2]. A) Tashqi faollik– bu tashqaridan va o'z ichki istak xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish va qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.B) Ichki faollik– bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinushi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari hamda, ikkinchi tomonidan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinxmaydigan, lekin faoliyat kechishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi" [3].

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotchi Q.Turg'unov esa faollikka quyidagicha ta'rif berib o'tgan. "Faollik – shaxsning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zgartirishga qaratilgan muhim qobiliyati. Faollik ixtiyorsiz va ixtiyor bo'lib, kishining faoliyati- mehnat, o'qish, ijtimoiy hayat, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi" [4]. Demak, faollik shaxsliy hayotda, guruhda, mahallada, tuman, viloyat, respublika, jamiyatda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi olima "M.Raxmonova fikricha, ijtimoiy faollik — shaxsning atrof-muhit, jamiyatda kechayotgan jarayonlarga bo'lgan munosabatlarining integral tizimi bo'lib, uning individual-tipologik va umri davomida shakllanib boruvchi ijtimoiy shartlangan xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Shuningdek, uning fikricha, talabalar ijtimoiy faolligi o'z oldiga maqsad qo'yish, unga erishishda yuqori darajada kuch-g'ayrat, shijoat, jo'shqinlik bilan faoliyat ko'rsatish va mehnat qilishida namoyon bo'ladi. Chuqur bilim, yetarli malakaga ega bo'lib, jamiyat hayotida o'ziga munosib joyni erkin egallash hamda yuqori natija bilan ishlashni ham talab etadi" [5].

Boshqa bir o'zbek olimi X.Tojiboyeva tarificha, "ijtimoiy faollik – shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etilgan. Ijtimoiy faollik me'yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir" [6].

Ijtimoiy falsafada shaxs faolligini namoyon etish va faoliyat samaradorligini oshirish masalasini o'rganishda "muvaffaqiyatga erishishga nisbatan" hamda "mag'lubiyatdan qochishga nisbatan" ikki xil motivatsiya o'ziga xos o'rinn tutadi. Shu jihatdan motivatsiyaning rolini nazariy va eksperimental tadqiq etilishi yuzasidan turli qarashlar ilgari suriladi.

Jumladan, I.I.Seregina ayollarning ijtimoiy faolligini karyerada "to'xtab qolishi"ga sabab, ularni aniq harakat qilmasligi, rahmdilligi, ishonuvchanligi, barchaga yaxshilik qilishga intilishidadir. G.V.Tureskaya muvaffaqiyatga erishishga nisbatan motivatsiya ko'p hollarda ishbilarmon va boshqaruvdagi ayollarga xos ekanligini e'tirof etadi.

Tadqiqotchi R.Kozmeskiy esa, "ayollar faolligidagi muvaffaqiyatda, ko'p mehnat qilish va tashabbuskorlikdan tashqari "yashab qolish" instinkti kuchli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. J.Atkinson es'a, erkaklarga nisbatan ayollardagi motivatsion muhit o'ziga xos xususiyatlarga ega" [7]ligi ilgari suriladi. A.N.Leontyev bo'lsa, faoliyatni motiv bilan bog'laydi. Uning fikricha, motiv shaxs bilan bog'liq, individ bilan emas. Zero, faoliyat motiv bilan bog'liq ekan, motiv shaxs tomonidan faoliyatni nima uchun amalga oshirilayotganligini anglashidir [8].

X.Xekxauzen fikricha motivatsiya – shaxsning psixodinamik tizimi bo'lib, tashqi muhitga nisbatan shaxsning hayotiy munosabatini belgilovchi va uning faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tashkillashtiruvchidir. Motivatsiyaning xususiyati va dinamikasi qator faktorlar orqali yuzaga keladi. Psixik jarayonlar vaziyat, irodaviy, emotsiyonal, shaxs tuzilishiga bevosita bog'liq bo'lgan (ehtiyoj, ustanonka, qadriyatlarga yo'nalganlik), shaxsni tashqi olamga munosabati, shaxsiy faollik, natijalarni rejalashtirish, oldindan belgilashdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijtimoiy falsafada ijtimoiy munosabatlardagi faollikni namoyon etuvchi o'ziga xos kasbiy xususiyatlar va qobiliyatlarga quyidagilarni kiritadi:

- amaliy intellekt – mantiqiy va tanqidiy fikrlash, amaliy masalalarni hal etishda bilim va tajribani tez va effektiv qo'llay bilish. Yetakchilik effektivligi ko'p jihatdan ma'lumotlar bilan ishlay olish va shaxslararo muomalaga bog'liq bo'ladi.

FALSAFA

- sotsial intellekt – atrofdagi insonlar ichki kechinmalarini to‘g‘ri tushunish va tahlil qilish.
- adekvat o‘z-o‘zini baholash. Bu shaxsnинг o‘z-o‘zini kuzatish, xatti-harakatlarini tanqidiy, tahliliy, nazorat o‘lchovida baholash qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi.

L.I.Umanskiy fikriga ko‘ra, “ijtimoiy faollikning umumiyo xususiyatlari — psixologik topqirlik, amaliy-psixologik aql, psixologik takt(muvozanat), jamoat ishidagi faollik, talabchanlik, tanqidiy qarash, tashkilotchilikka qiziqishida deb hisoblaydi. Shuningdek olim qarashlarida, maqsadni aniq belgilay olish, taxmin(prognоз) qila bilish, rejalashtirish, qaror qabul qila olish, kommunikativ qobiliyatni shakllantirish boshqaruvdagi faollik samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Dominantlik, stressga chidamlilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, emotsiyonal turg‘unlik subyektning shaxsiy xususiyatlari” [9]dir.

Shaxsni tashqi muhitga ta’sir reaksiyasi jamiyatda egallaydigan statusiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Rotter nuqtai nazariga ko‘ra ham “xatti-harakatlar reaksiyasida – faoliyatni faolligi muvaffaqiyatga erishishga yo‘nalganligidir. Bu shaxsnинг ijtimoiy hayotda tan olinishiga asos bo‘lib xizmat qiladi” [10]. Bu borada “G.Tom tomonidan “shaxs mavjudligining faolligi” nazariyasi ilgari suriladi. Bu insonning shaxsiy hayotining hech qanday bo‘shliqlarsiz to‘liq bo‘lishiga, faoliyatga, faollikka intilishini” [11] anglatadi.

Jumladan, ayollar faolligini shakllanishi va ijtimoiy xususiyatlarni namoyon bo‘lishida jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy vaziyatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, turli sohalarni boshqarishdagi faollikda ko‘rinishi mumkin. Masalan, ayollar faolligi taraqqiyotning turli davrlarida siyosiy, ijtimoiy va psixologik motivlar asosida amalga oshirilganligi, baholanganligi yoki boshqarilganligini kuzatishimiz mumkin.

Jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy faolligi deyilganda, ulardan mamlakat hayotida faol ishtirot etish, uning taraqqiyotiga, istiqboliga daxldor bo‘lib yashash, xalq farovonligiga erishish maqsadida ma’naviy-ruhiy ishchanlikni, samaradorlikka erishish yo‘lida e’tiqodi, qobiliyati, iste’dodi imkoniyatlarini ishga solishi tushuniladi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi deyilganida esa, ular tomonidan, davlatimizning ichki va tashqi siyosatini to‘g‘ri anglash, uning manfaatini himoya qilish, o‘z biliyi, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini doimiy oshirib borishni tushunamiz. “Ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bo‘yicha o‘tkazilgan oxirgi ijtimoiy so‘rovlar ishtirotchilarining 70,2 foizi mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganini qayd etgan. Ushbu so‘rovda qatnashgan 81,5 foiz respondentlarning fikricha, ayollarning jamoat yoki siyosiy tashkilotlarda o‘z faoliyatini amalga oshirishda hech bir shaxs va biror-bir holat ularga xalaqit bermaydi”. [12]

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ro‘yobga chiqarishning asosiy shartlaridan biri, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi erkin va ijodiy ishtiroti hamda uning aniq maqsadga yo‘naltirilishi bilan belgilanadi.

Bu esa quydagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- ayollar o‘rtasida inson kapitalini har tomonlama yuksaltirish;
- xotin-qizlarning ijtimoiy onglilik darajasini yuksaltirish;
- “har bir oila – tadbirkor” umummilliylar harakatida xotin-qizlarning o‘rnini kuchaytirish, mustaqil tadbirkorlik faoliyatida o‘zligini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ayollar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy musobaqaviylik muhitni yaratish;
- jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy o‘zgarishlardan uzluksiz xabardorligini ta’minlash;

- davlatning xotin-qizlarga doir siyosatining mazmuni, mohiyati va ahamiyatini tushunib borishiga ko‘maklashish hamda jamiyatning ijtimoiy — siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalari rivojida ayollar ishtirotini qo‘llab — quvvatlash va muvofiqlashtirish.

Bugungi kunda xotin-qizlarning faollik darajasini tadqiq etish bo‘yicha o‘tkazgan so‘rovnomalar natijalarini ijtimoiy-siyosiy faollikning eng asosiy mezonlarini aniqlash imkonini berdi. Ular quydagilar:

- hayot o‘zgarishlari va o‘z faoliyatiga ongli yondashuv;
- maqsadlilik;
- mehnatsevarlik;
- boshqalarni yaxshi ko‘rish;
- shijoatlilik;

- irodalilik;
- to'g'rilik, halollik;
- etatik mehr;
- o'z xalqini sevish va boshqa xalqlarga nisbatan hurmat;
- g'oyaviy sadoqatlilik, mafkuraviy chiniqqanlik;
- yuksak mas'uliyatlik, shaxsiy javobgarlikni teran his etish;
- mustahkam sog'lik, sog'lom turmush tarziga egalik.

Shuni alohida qayd etish joizki, mazkur mezonlar bitta shaxsda butun majmui bilan namoyon bo'lishi kam uchraydigan hodisa sanaladi, ammo mazkur omilarning kamida uchtasi bir insonda mujassam bo'lsa, uni ikkilanmasdan faol ayol maqomida qayd etsa bo'ladi. Shuningdek, kundalik turmushda xotin-qizlarni jamiyatda ijtimoiylashuvi, ularga kompleks yordam berishni joriy qilish, ular duch keladigan muammolarni ijtimoiy tahlil qilish, ular bilan ishlovchi davlat muassasalari va jamoat tashkilotlariga xotin-qizlar bilan ishlashda yana-da ko'proq samara beruvchi taklif va tavsiyalar asosida yangi innovatsion modelni ishlab chiqish maqsadida muntazam ijtimoiy tadqiqotlar va tahlillar olib borilmoqda. Ijtimoiy tadqiqot tahlili, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning jamiyatda tutgan o'rni zamon talablari darajasida emasligini ko'rsatib turibdi. Masalaga yana-da aniqroq yondashilsa, xotin-qizlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishda ularning o'zları ham faol ishtirok etishi, o'z-o'zini va oilasini ijtimoiy og'ir ahvoldan olib chiqish uchun harakat qilishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ma'lum bo'ladi. Xususan,

- xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini to'g'ri tushunishi va bu sohadagi bilimlarini doimiy oshirib borishi;
- davlat tomonidan xotin-qizlar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan to'g'ri, unumli va o'rinli foydalanishi;
- oilada ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlashi;
- o'zi va oila a'zolarining bandligini ta'minlashga ko'maklashish va hokazo.

Davlatimiz rahbari rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, ularning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeyini mustahkamlash, salohiyatini to'la namoyon etishi, oilalardagi ijtimoiy-ma'nnaviy muhitni yana-da sog'lomlashtirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Buning natijasi o'laroq, O'zbekiston ayollar davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etmoqda, ularning oiladagi mavqeyi mustahkamlanmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat xotin-qizlarimizga chinakam baxtli yashashi uchun, ularning huquq hamda erkinliklarni ta'minlash, intellektual va ma'nnaviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarini hamohang tarzda bajarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratayotir.

Ayollar faolligining o'ziga xos xususiyatlari bu jarayonning oila, mahalla, mehnat jamoalari kabi sohalarda kechishi bilan ajralib turadi. Ayol faolligini oshirish muammosi tadqiqotchilarining izlanishlari keng o'rinn egallagan. Faylasuf olima M.Xolmatovaning asarlarida bu holat "ijtimoiy-tarixiy hamda ayolning jamiyat hamda oiladagi mavqeyi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Sharq oilasining bir qismi bo'lgan o'zbek oilalarida ham o'zaro hurmat, qat'iy ichki intizom asosida barcha o'z burch va vazifalarini ado etishlari, bir-birlariga nisbatan ezgulik va mehr-oqibat ko'rsatishlari an'anaga aylangan"[13]. Bunday umuminsoniy xususiyat o'zbek ayollar etnomadaniyatiga ham xosdir. Bu borada tadqiqot olib borgan olima O.Nishonovaning ta'kidlashicha: "O'zbek ayollar etnomadaniyatida xotin-qizlarimizning o'ziga xos turmush tarzi, hayotiy tajribasi, urf-odatlari, avlodlararo muloqot an'analari, dunyoni anglash, idrok etish usullari, oilaviy-maishiy marosimlari, ma'nnaviy boyliklari, ijtimoiy normalar, madaniy ijod namunalari jamlangan" [14].

XULOSA

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat taraqqiyoti va ularni ijtimoiy himoya qilish tizimi samaradorligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Bular: xotin-qizlarning manfaatlari, ehtiyojlari, huquq va erkinliklarini, davlat boshqaruvida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash; ularning bandligini ta'minlash;og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish; xotin-qizlar huquq buzarligi va jinoyatchiligining oldini olish;oilada ma'nnaviy muhit barqarorligini ta'minlash.

Xulosa qilganda, xotin-qizlar faoliyti ijtimoiy faoliytkning turi sifatida eng avvalo, jamiyatning ijtimoiy sohasini qamrab oladi lekin, shu bilan birga, ijtimoiy faoliyatning istalgan turida namoyon

FALSAFA

bo'lib, soj ijtimoiy soha chegaralaridan tashqariga ham chiqadi. Ya'ni, siyosiy faoliik har doim ijtimoiy yo'naltirilgan bo'ladi va aynan ijtimoiy muhim manfaatlarni qondirishga qaratiladi va ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-demografik, moddiy-maishiy, madaniy-texnik va boshqa omillar ta'sirida rivojlaniib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. 1998. Минск. ХАРВЕСТ. С.14. (Golovin S.Yu. Dictionary of a practical psychologist. 1998. Minsk. HARVEST. P.14)
2. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "G.G'ulom". -T.: 2016. -B. 82-85.(Spirituality. Explanatory dictionary of basic concepts. "G. Ghulam". -T.: 2016. -B. 82-85.)
3. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. -T.: O'qituvchi.2000. B- 48.(Karimova V.M., Akramova F.A. Psychology. — T.: Teacher. 2000. B-48)
4. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi. 1975. B- 9-10.(Turgunov K. Russian-Uzbek explanatory dictionary of psychological terms. -T.: Teacher. 1975. B- 9-10.)
5. Raxmonova M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faoliikni rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. —Samarqand.: SamDU. 2019. -B. 12-14.(Rakhmonova M. Development of social activity among students of higher education institutions. Doctor of Philosophy (PhD) thesis on pedagogical sciences. — Samarkand.: SamDU. 2019. -B. 12-14.)
6. Tojiboyeva X. O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. —Toshkent.: TDPU. 2018. -B. 10.(Tojiboyeva H. Pedagogical system of increasing the social activity of students. Doctor of Philosophy (PhD) thesis on pedagogical sciences. -Tashkent.: TDPU. 2018. -B. 10.)
7. Щелокова Е.Г. авто.реф диссертации на тему «Ценности-смысловое содержание карьерной направленности». ФГБОУВПОЮ жно-Уральский Государственный Университет(НИУ). Челябинск. 2012. (Shchelokova E.G. auto.ref of dissertation on the topic "Values - semantic content of career orientation". FGBOUHPO South Ural State University (NRU). Chelyabinsk. 2012)
8. Леонтьев А.Н. Деятельность, Сознание, Личность. / А.Н. Леонтьев. — М., 2004. — 351.(Leontiev A.N. Activity, Consciousness, Personality. / A.N. Leontiev. — M., 2004. — 351.)
- 9.Маркова Е. "Социально-психологический портрет женщины предпринимателя". Статья.C.4. <https://superinf.ru>(Markova E. "Socio-psychological portrait of a female entrepreneur." Article. C.4. <https://superinf.ru>)
10. Л.Д.Столяренко. Основы психологии. «Феникс» Ростов-на-Дону, 2000, стр. 75. (L.D. Stolyarenko. Fundamentals of Psychology. "Phoenix" Rostov-on-Don, 2000, p. 75)
11. Л.Д.Столяренко. Основы психологии. «Феникс» Ростов-на-Дону, 2000, стр. 98.(L.D. Stolyarenko. Fundamentals of Psychology. "Phoenix" Rostov-on-Don, 2000, p. 98)
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Oliy Majlisini Senatining 22.06.2019 yildagi 20-yalpi majlisidagi nutqi./ <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-06-2019>.(The speech of the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev at the 20th plenary session of the Senate of the Oliy Majlis of Uzbekistan on 22.06.2019. -06-2019.)
- 13.Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi.—Toshkent: O'zbekiston, 2000. — B.59.(Khalmatova M. The culture of family relations and raising a healthy generation.-Tashkent: Uzbekistan, 2000. — B.59.)
14. Nishonova O.J. O'zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari (falsafiy-madaniy yondashuv): Falsafa fan. nomz. ... dis. avtoref. — Toshkent, 2005. — 21 b.(Nishonova O.J. Ethnoculture of Uzbek women: genesis, characteristics, problems (philosophical-cultural approach): Philosophy science. name ...dis. autoref. — Tashkent, 2005. — 21 p.)
15. Nasrullayeva X. O'zbekistonda Xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: Falsafa fan. nomz. ... dis. — Toshkent, 2000. (Nasrullayeva H. Philosophical analysis of the process of socialization of women and girls in Uzbekistan: Philosophy science. name ...dis. — Tashkent, 2000.)